



**DARSLARDA O‘QUVCHILARNI MUSTAQIL VA TANQIDIY
FIKRLASHGA YO‘NALTIRISH MAQSADIDA QO‘NG‘IROT
LAR DAVRIDA IJTIMOIIY-IQTISODIIY MUNOSABATLAR**

Ro‘ziyev Sarvar Qaxramon o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti

4- kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari tahlil qilinadi hamda ushbu mavzuni tarix darslarida o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga yo‘naltirishning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, davrning yer egaligi, soliq tizimi, hunarmandchilik, savdo-sotiq va aholi turmush tarzi bilan bog‘liq jihatlari tarixiy manbalar asosida ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarda tarixiy voqealarni tahlil qilish, dalillarni solishtirish va xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘ng‘irotlar sulolasi, Xiva xonligi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, yer egaligi.

Kirish

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib, Xiva xonligi og‘ir siyosiy inqiroz va iqtisodiy tushkunlikni boshidan kechirayotgan edi. Eron shohi Nodirshohning istilochilik yurishlari hamda o‘zaro feodal urushlar natijasida dehqonchilik vohalari vayron bo‘lgan, sug‘orish tarmoqlari ishdan chiqqan edi. Bunday murakkab tarixiy sharoitda vohada yashovchi nufuzli o‘zbek qabilalaridan biri — Qo‘ng‘irotlar siyosiy sahnaga chiqdi.

1761-yilda Muhammad Amin inoq (1761–1790) hokimiyat tepasiga kelishi bilan Xiva xonligida Qo‘ng‘irotlar sulolasining amaldagi boshqaruvi boshlandi. Muhammad Amin inoq davlatni markazlashtirish, tarqoqlikka barham berish va qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalarini tiklash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rdi. Garchi u an’anaga ko‘ra taxtga chingiziylardan qo‘g‘irchoq xonlarni o‘tqazgan bo‘lsa-da, barcha ma’muriy va harbiy vakolatlar inoqlar qo‘lida jamlangan edi.

1804-yilda Muhammad Amin inoqning nabirasi Eltuzar inoq (1804–1806) chingiziylar vakili bo‘lgan Abulg‘ozixon V ni taxtdan tushirib, o‘zini rasman “xon” deb e’lon qildi. Shu tariqa, Xiva xonligida qonuniy ravishda Qo‘ng‘irotlar sulolasining hukmronligi o‘rnatildi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Muhammad Rahimxon II (Feruz) (1864–1910) hukmronligi davrida xonlik murakkab geosiyosiy vaziyatga to‘qnash keldi. 1873-yildagi Rossiya



imperiya­si­ning harbiy yurishi va Gandimiyon shartnomasi natijasida Xiva xonligi Rossiya protektoratiga (vassalligiga) aylandi. Shunga qaramay, Feruz davrida xonlikda madaniy hayot, kitobat san'ati va matbaachilik rivojlandi.

Qo'ng'irotlar sulolasi 1920-yilda Xiva xalq sho'rolar jumhuriyati tuzilgunga qadar hokimiyatni boshqardi. Bu sulola vakillari Xorazm vohasining o'ziga xos milliy davlatchilik an'alarini saqlab qolish, sug'orish tizimini kengaytirish va o'ziga xos tarixnavislik maktabini yaratishda (Munis, Ogahiy, Bayoniy) katta hissa qo'shdilar. Xiva xonligida Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida (XVIII asr oxiri – XX asr boshlarida) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi, ayniqsa yer egaligi shakllari va soliq tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo'lgan. Mazkur davrda agrar munosabatlar xonlik iqtisodiyotining negizini tashkil etib, yerga egalik qilish shakllari hamda undan foydalanish tartibi aholining ijtimoiy tabaqalanishida muhim rol o'ynagan.

Qo'ng'irotlar sulolasi davrida yer egaligining asosiy shakllari sifatida davlat yerlari (amlok), xususiy yerlar (mulk) va diniy muassasalarga tegishli yerlar (vaqf) ajralib turgan. Amluk yerlar xonlik tasarrufida bo'lib, ular bevosita davlat ehtiyojlari uchun xizmat qilgan hamda ushbu yerlar ustidan nazorat xon ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan. Amluk yerlarda yashovchi dehqonlar davlatga turli soliq va majburiyatlarni bajarish orqali yerlardan foydalanish huquqiga ega bo'lganlar. XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi hududida taxminan 800 mingga yaqin aholi istiqomat qilgan bo'lib, ularning asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan band edi. Aholining qariyb 90 foizi dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganiga qaramay, ular foydalanayotgan sug'oriladigan yerlar umumiy yer maydonining juda kichik qismini, ya'ni taxminan 5 foizini tashkil etgan. Bu esa ishlab chiqaruvchi qatlam bilan yer egalari o'rtasida sezilarli tafovut mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Sug'oriladigan va unumdor yerlarning asosiy qismi xon saroyi, mahalliy amaldorlar, yirik mulkdorlar hamda diniy muassasalar – masjid va madrasalar tasarrufida bo'lgan. Natijada oddiy dehqonlar yerga egalik qilish huquqiga ega bo'lmasdan, asosan undan foydalanish asosida xo'jalik yuritganlar. Soliq miqdori esa yerning sifati, unumdorligi hamda yer egasining jamiyatdagi mavqeiga qarab belgilanib, bu tizim ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirgan.

Xiva xonligiga oid XIX asrning birinchi yarmi va ikkinchi choragiga taalluqli muhim arxiv hujjatlari hozirgi kunda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahridagi Saltikov-Shchedrin nomidagi Milliy kutubxona fondlarida saqlanadi. Ushbu hujjatlar 1873-yilda xonlik Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingach, markazga olib ketilgan va uzoq vaqt davomida tadqiqotchilar uchun



yopiq holda saqlangan. Faqat XX asr o'rtalariga kelibgina ular ilmiy muomalaga qisman kiritila boshlagan. Xonlik iqtisodiyotida dehqonchilik yetakchi tarmoq bo'lib, ayniqsa g'alla yetishtirish muhim ahamiyat kasb etgan. Asosan sholi, jo'xori va suli ekinlari keng tarqalgan bo'lib, ular aholining oziq-ovqat ehtiyojlarini ta'minlashda asosiy o'rin egallagan. XIX asrning oxirlariga kelib, xususan 1890-yillardan boshlab Rossiya bilan iqtisodiy aloqalarning kengayishi natijasida qishloq xo'jaligida paxtachilikka ixtisoslashuv jarayoni ham tezlashgan. Xiva xonligida yer egaligi tizimi ijtimoiy tabaqalanish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Yerlarning asosiy qismi xon, uning yaqin qarindoshlari hamda davlat amaldorlari tasarrufida jamlangan edi. Xon tomonidan xizmatlari uchun mukofot sifatida amaldorlar va a'yonlarga davlat yerlari ajratilgan. Shu bilan birga, xon va uning atrofidagi yuqori tabaqa vakillari ko'plab soliqlardan ozod etilgan bo'lib, bu ularning iqtisodiy ustunligini yanada mustahkamlagan.

Qo'ng'irotlar sulolasi davri (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida) Xiva xonligida iqtisodiy va madaniy hayotning muhim o'zgarishlar bosqichiga to'g'ri keladi. Bu davrda xonlik ichki va tashqi savdo-sotiq aloqalarini mustahkamlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, shuningdek, bozor va mahalliy markazlar orqali iqtisodiy hayotni modernizatsiya qilishga intilgan.

Xiva xonligida savdo-sotiqning asosiy markazlari Xiva shahri, Shovot, Urganch va boshqa strategik joylashgan bozorlar bo'lgan. Shaharlar o'zaro va qo'shni hududlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirgan. Qo'ng'irotlar sulolasi davrida xonlikning savdo siyosati asosan ichki bozorlarni tartibga solish va eksport-import operatsiyalarini nazorat qilishga qaratilgan edi. Xiva xonligida ichki bozorlar shaharlar markazida joylashgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini sotish va taqsimlash bo'lgan. Bozorlar orqali mahsulotlar nafaqat ichki iste'molga, balki tashqi bozorga ham yetkazilgan. Karvon yo'llari savdo-sotiqning rivojlanishida muhim vosita bo'lgan. Karvonlar orqali shaharlarga turli hududlardan g'alla, chorva, ipak, mato, keramika va boshqa mahsulotlar olib kelingan. Shu yo'l bilan ichki bozorlar va qo'shni xonliklar o'rtasida iqtisodiy aloqalar mustahkamlangan. Xiva xonligida ichki va tashqi savdo tizimi doimiy ravishda rivojlanib bordi. Ichki savdoda Xivaning yopiq bozorlari alohida o'rin tutgan bo'lsa, tashqi savdoda xonlik mahsulotlari – qorako'l teri, gilam va hunarmandchilik buyumlari – Eron, Hindiston, Xitoy va Usmonli imperiyasiga yetkazilgan. Xiva savdogarlari, asosan, Buxoro, Eron va Afg'oniston bilan savdo qilgan bo'lib, ular "buxorochi" nomi bilan tanilgan. Eronga olib borilgan mahsulotlar orasida ipak, qorako'l teri, barra qo'zi terisi, kunjut, bug'doy va



turkman otlari mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, Xiva savdogarlari Erondan murch, imbir va boshqa hind mahsulotlari, shuningdek, ipak mato va feruza keltirishgan.

Tarix darslarida Qo'ng'irotlar davridagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, "Aqliy hujum", "Bahs-munozara", "Venn diagrammasi", "Klaster" va "Case-study" metodlari o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Masalan, Qo'ng'irotlar davridagi soliq tizimining aholiga ta'siri haqida muammoli savollar berish orqali o'quvchilar tarixiy jarayonlarga tanqidiy yondashishni o'rganadilar. Tarixiy hujjatlar va manbalar bilan ishlash esa ularning dalillarni tahlil qilish, turli fikrlarni solishtirish va asosli xulosalar chiqarish kompetensiyalarini shakllantiradi. Natijada o'quvchilar tarixiy bilimlarni shunchaki yodlab olish emas, balki ularni tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Xulosa

Qo'ng'irotlar sulolasi davrida Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti yer-suv munosabatlari, soliq tizimi, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo aloqalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Ushbu tarixiy jarayonlarni darslarda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish o'quvchilarning tarixiy tafakkuri, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tarixiy manbalar va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mavzuni chuqur o'zlashtirishiga hamda tarixiy voqea-hodisalarni ilmiy asosda baholashiga imkon yaratadi. Shu bois Qo'ng'irotlar davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini o'rganish nafaqat tarixiy bilimlarni boyitadi, balki yosh avlodning intellektual salohiyatini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yo'ldoshev M.Y. XIX asr Xiva davlat hujjatlari. – T.: Fan, 1960. – B. 12-15.
2. Sadykov A.S. Ekonomicheskie svyazi Xivi s Rossiey (vtoraya polovina XIX – nachalo XX v.). – T.: Nauka, 1965. – S. 24.
3. Bartold V.V. Sochineniya. T. II. Ch. 1. – M.: Nauka, 1963. – S. 540-545.
4. Shkapskiy O. Amudaryinskie ocherki. – Tashkent, 1900. – S. 82-85.
5. Ivanov P.P. Arxiv Xivinskix xanov XIX v. – L.: Izd-ie Gosudarstvennoy Publichnoy Biblioteki, 1940. – S. 32-35.
6. Vamberi A. Markaziy Osiyoga sayohat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – B. 112-115.



BRIDGING THE GAP: EDUCATION AND SCIENCE FOR A SUSTAINABLE FUTURE

